

LUG‘ATLARNI SINFLARGA VA TURLARGA AJRATISH XUSUSIDAGI YONDASHUVLAR

Yuldashova Adolat Adilbayevna

Stajyor-o‘qituvchi

Xorijiy filologiya fakulteti

O‘zbekiston Milliy universiteti

E-mail: adolat111@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy leksikografiyaning dolzarb muammolaridan biri — lug‘atlarni klassifikatsiya va tipologiya qilish masalalari tahlil etilgan. Tadqiqotda taniqli lug‘atshunos olimlar amaliyoti, xususan, Kyunning funksional tasnifi va Xausmanning "fenomenologik tipologiyasi" modellari qiyosiy o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: leksikografiya, lug‘at klassifikatsiyasi, sinflashtirish, tipologiya, turlarga ajratish, funksional tasnif, fenomenologik tipologiya.

Аннотация: В данной статье анализируется одна из актуальных проблем современной лексикографии — классификация и типология словарей. В исследовании сравниваются модели известных лексикографов, в частности, функциональная классификация Кюна и "феноменологическая типология" Хаусманна.

Ключевые слова: лексикография, классификация словарей, типология, функциональная классификация, феноменологическая типология.

Abstract: This article analyzes one of the current problems of modern lexicography — the classification and typology of dictionaries. The study provides a comparative analysis of models proposed by prominent lexicographers, specifically Kühn's functional classification and Hausmann's "phenomenological typology".

Keywords: lexicography, dictionary classification, typology, functional classification, phenomenological typology.

Lugʻatlar koʻplab belgi va xususiyatlarga koʻra farqlanganligi sababli ularni sinflarga ajratishda ham turli xil qiyinchiliklarga duch kelinadi. Har bir lugʻat faqat bitta emas, balki bir nechta tuzilish jihatiga ega, shu sababli ularni yagona qatʻiy mezon asosida tasniflashning ham imkoni yoʻq. Lugʻatshunos olim Kyun taʻkidlaganidek, lugʻat tipologiyalari hech qachon mutlaq toʻliq va qatʻiy boʻla olmaydi, chunki tildagi oʻzgarishlar va ijtimoiy ehtiyojlar tufayli doimo yangi lugʻat turlari paydo boʻlib boraveradi [4;112].

Leksikografik adabiyotlarda lugʻatlarni guruhlashda klassifikatsiya va tipologiya tushunchalari koʻpincha parallel ravishda qoʻllaniladi va oʻzaro uygʻunlik kasb etadi. Biroq ularning har biri oʻziga xos ilmiy vazifani bajaradi.

Adabiyotlarda muhokama qilinadigan lugʻat guruhlashlari odatda ham klassifikatsiya, ham tipologiya xususiyatlariga ega boʻladi. Ularni maʼlum bir jihatlariga ajratib tartiblash mumkin. Tartibning eng quyi pogʻonasida lugʻatlar odatda bir necha oʻnlab asosiy turlardan biriga kiritiladi. Bunday turlarga “ensiklopedik lugʻat”, “oʻrganuvchilar lugʻati”, “soʻzlashuv tili lugʻati”, “dialekt lugʻati”, “sinonimlar lugʻati” kabi lugʻatlar kiradi. Muayyan bir lugʻatni ushbu lugʻat turlaridan biriga kiritish asosan turlarga ajratishga oid masala hisoblanadi [1;15].

Misol tariqasida kompyuter xakerlari tiliga bagʻishlangan “Jargon Dictionary” (RAYMOND-JARGON-IW) lugʻati ham maxsus til lugʻati, ham terminologik lugʻat, hamda soʻzlashuv tili lugʻati xususiyatlariga ega. Maxsus til lugʻatlari odatda maʼlum bir ijtimoiy guruh tiliga oid lemmalarni oʻz ichiga olsa, terminologik lugʻatlar koʻpincha kasb yoki ilmiy soha tiliga xos boʻlib, ular aniq belgilangan terminlarni qamrab oladi. Soʻzlashuv tili lugʻatlari esa asosan tilning muayyan, “quyi” uslubiy qatlamiga mansub soʻzlarni oʻz ichiga oladi. RAYMOND-JARGON-IW lugʻatida keltirilgan leksika deyarli toʻliq kompyuter xakerlari guruhining tilini aks ettiradi, biroq uning faqat kichik qismi terminologik-taʼrifiy xususiyatga ega boʻlib, umumiy soʻzlashuv tiliga ham juda oz darajada taalluqlidir. Shu sababli ushbu lugʻat maxsus til lugʻatlari sinfiga kiritiladi [1;15].

Biroq yuqorida tilga olingan lugʻatning asosiy turlarini yanada yirik guruhlariga birlashtirish koʻproq sinflashtirish masala hisoblanadi. Agar “maxsus til lugʻati” turi

“ma’lum bir ijtimoiy guruh tilini leksikografik tarzda qayd etuvchi lug‘at” sifatida ta’riflansa hamda lug‘at turlari 1) adabiy tilni tasvirlaydiganlar, 2) adabiy tilning muayyan uslubiy qatlamini tasvirlaydiganlar va 3) adabiy tilning sotsiolektal yoki dialektal variantini tasvirlaydiganlar kabi sinflarga ajratilsa, unda u lug‘at turining 3-sinfga mansubligi ta’rifga ko‘ra aniq bo‘ladi va bu “ko‘proq yoki kamroq darajada” gi masalabo‘lib qolmaydi.

Lug‘atlarni tartiblashning aksariyat tizimlarida muayyan lug‘atlar tipologik tarzda lug‘at turlariga kiritiladi, so‘ngra bu lug‘at turlari lug‘at turlari sinflariga birlashtiriladi. Shu sababli bunday sa’y-harakatlar natijalarini lug‘at turlarining klassifikatsiyasi deb atash mumkin. Biroq lug‘atshunoslik tadqiqotlarida ular ko‘pincha “lug‘at tipologiyasi” atamasi ostida yuritiladi.

Kyun lug‘at turlarini ularning yetakchi foydalanish vazifalariga ko‘ra tasniflaydi [4;111]

(1-rasm):




Abb. 13.1. Möglichkeiten der Wörterbuchnutzung

Bunda Kyun lug‘at turlarini ulardan foydalanishning amaliy maqsadlari va yetakchi vazifalariga ko‘ra ikki yirik yo‘nalishga ajratadi. Ushbu yo‘nalishlarning birinchi turi Lug‘atdan ma’lumotnoma sifatida foydalanish bo‘lib, u ham o‘z navbatida quyidagicha sinflarga ajratiladi:

Kompetensiyani nazorat qilish- Matn tuzuvchilar, o‘quvchilar va kotiblar uchun mo‘ljallangan imloviy, talaffuz, so‘z o‘zgarishi hamda qiyinchiliklar lug‘atlari;

Matnni qabul qilish, tushunishni ta'minlash uchun mo'ljallangan Chet tillar, dialektlar, qisqartmalar, maxsus tillar, gazeta leksikasi, haqorat so'zlari va ismlar lug'atlari;

Talqinni kuchaytirish: "Til bilimdonlari" uchun mo'ljallangan so'z tarixi, neologizmlar, arxaizmlar, terminologik, tushunchalar lug'atlari hamda suhbat leksikonlar;

O'quvchi, talaba va tarjimonlar uchun mo'ljallangan tarjima lug'atlari; Yozuvchilar, notiqalar, reklama matnlari, olimlar, yozuvchilar, o'quvchi va talabalar uchun mo'ljallangan paradigmatic jihatdan:

tushunchalar, analogiya, sinonimlar, antonimlar lug'ati;

sintagmatik: konstruksiyalar, kollokatsiyalar lug'ati va qator hosil qilish uchun qofiya, chastota va teskari tartibli lug'atlar;

Oddiy foydalanuvchilar, mutaxassislar, tarjimonlar uchun mo'ljallangan sohaviy lug'atlar;

Olimlar uchun xizmat qiladigan indeks, konkordans, muallif, morfema, chastota, so'z tarixi va ismlar lug'atlari kiradi.

Kyun turlarga ajratishning ikkinchi yo'nalishini Lug'atdan o'qish kitobi sifatida foydalanish deb ataydi va bu yo'nalishni ham o'z navbatida turli sinflarga ajratadi:

Ma'naviy boyish va ta'lim uchun: Etimologik, iboralar, maqollar, iqtiboslar va krossvord lug'atlari.

O'quvchilar, talabalar, katta yoshdagi chet tili o'rganuvchilariga mo'ljallangan til o'rganish uchun sinonimlar, omonimlar lug'ati, maktab lug'atlari, asosiy so'z boyligi lug'atlari, rasmi va o'rganuvchilar lug'atlari.

Lug'atlar qamrov darajasiga ko'ra dastlab ikki yirik tarmoqqa — umumiy va maxsus lug'atlarga bo'linadi. Maxsus lug'atlar o'z navbatida ma'lumot turi va cheklovlariga ko'ra quyidagicha tizimlashtiriladi:

Boshqa ma'lumot turi asosidagi lug'atlar: etimologik, xronologik, chastota, tallaffuz va imloviy lug'atlar;

Sintagmatik lug'atlar: Konstruktsiyalar, valensiya, kollokatsiyalar, idiomalar, maqollar va analogiya lug'atlari.

Mazmuniy-paradigmatik lugʻatlar: Tezauruslar, sinonimlar, antonimlar, munosabatlar va rasmi lugʻatlar.

Ifoda paradigmasiga asoslangan lugʻatlar: Teskari tartibli, fonologik, qofiya, omonimlar, gomofonlar, gomograflar, fleksiya va soʻz oilalari lugʻatlari.

Variantlar va foydalanuvchilarga yoʻnaltirilgan lugʻatlar:

Til variantlariga yoʻnaltirilgan lugʻat: Dialekt, hududiy va til bosqichlari lugʻati, maxsus tillar lugʻati, terminologik lugʻat.

Foydalanuvchi guruhlariga yoʻnaltirilgan lugʻatlar- didaktik lugʻat: Oʻrganuvchilar lugʻati, asosiy soʻz boyligi lugʻati, boshlangʻich sinf lugʻati, bolalar va maktab lugʻatlari

Matnga oid lugʻatlar: Muallif lugʻati, konkordans va misollar lugʻati.

Lemma turiga asoslangan lugʻatlar:

Pragmatik jihatdan cheklangan lemma tanloviga ega lugʻatlar: Soʻzlashuv tili, arxaizmlar, neologizmlar, soʻkinish soʻzlari lugʻati, evfemizmlar, tabu soʻzlar lugʻati, kalit soʻzlar lugʻati, chet tiliga oid soʻzlar lugʻati, nemislashtirish lugʻati, qiyin soʻzlar lugʻati va qiyinchiliklar lugʻati;

Soʻz tarixida cheklangan lemma tanloviga ega lugʻatlar: oʻzlashma soʻzlar lugʻati, eponimlar, dubletlar va yoʻqolib ketgan soʻzlar lugʻati;

Semantik jihatdan cheklangan lugʻatlar: Semantik maydon, onomatopeya va ismlar lugʻatlari.

Formal jihatdan cheklangan lugʻatlar: Soʻz turkumlariga xos lugʻatlar, morfema, qisqartmalar va “soxta doʻstlar” lugʻatlari hamda internatsionalizmlar lugʻati.

Lugʻatshunoslik nazariyasida Franz Yozef Hausman tomonidan taklif etilgan “Fenomenologik tipologiya” modeli alohida oʻrin tutadi. Muallif ushbu tasnifni *International Handbook of Lexicography* uchun maxsus ishlab chiqqan.

Ushbu yondashuvning asosiy xususiyati shundaki, unda tasniflash mezonlari sifatida lugʻatlarning ichki va tashqi tuzilishida bevosita kuzatiladigan xususiyatlar asos qilib olinadi. Hausmann ushbu modelni "tipologik" deb atashiga sabab — har bir guruh yoki sinf ichida lisoniy materialni aks ettirish nuqtai nazaridan eng xarakterli, tipik lugʻatlar mavjud boʻladi.[3; 969].

Franz Yozef Hausman avvalo bir tilli lug‘atlar va ikki tilli lug‘atlarni farqlaydi va bu sinflarning har birida umumiy lug‘atlar hamda maxsus lug‘atlarni ajratadi. Maxsus lug‘atlarni klassifikatsiya qilishda esa quyidagi mezonlardan foydalaniladi:

- lug‘atning muayyan foydalanuvchilar guruhiga yo‘naltirilganligi;
- lug‘atning muayyan matnlarga yo‘naltirilganligi;
- lug‘atning muayyan axborot turlariga yo‘naltirilganligi;
- lug‘atning muayyan lemma turlariga yo‘naltirilganligi.

Hausmann tipologiyasi asosan lug‘at turlarining muhim strukturaviy va mazmuniy o‘xshashliklari haqida umumiy tasavvur beradi.

Zamonaviy leksikografiyada lug‘atlar tasnifi bir tomonlama yondashuvni inkor etadi. Kyun va Hausmann kabi olimlarning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, lug‘atlarni guruhlashda ham funksional-amaliy (foydalanish maqsadlari), ham tarkibiy-fenomenologik xususiyatlarni birlashtirgan holda hisobga olish lozim. Bu esa nafaqat mavjud lug‘atlarni to‘g‘ri tasniflash, balki kelajakda paydo bo‘ladigan yangi elektron va integral leksikografik manbalarning o‘rnini belgilashda muhim poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Engelberg S. Lemnitzer L. Lexikographie und Wörterbuchbenutzung. Stauffenburg, 2001. 277 S.
2. Hausmann, F. J. Ein internationales Handbuch zur Lexikographie. Berlin: Walter de Gruyter, 1989. 1054 S.
3. Kühn, P. Typologie der Wörterbücher nach Benutzungsmöglichkeiten. 1989. 1054 S.